Oʻzbekistonda ham turizm sohasi yildan yilga izchil rivojlanib bormoqda. 2025–yilda mamlakatga turizm maqsadida tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar soni 11,7 million nafarga yetdi. Bu koʻrsatkich 2024–yildagi 8,2 million nafarga nisbatan 3,5 million nafarga koʻpdir [3]. Turizm xizmatlari eksporti 2024–yildagi 3,52 milliard dollardan 2025–yilda 4,8 milliard dollarga oshdi. “Oʻzbekiston–2030” strategiyasida esa 20 million xorijiy sayyohni qabul qilish hamda 6 milliard dollar miqdorida turizm eksportiga erishish ustuvor maqsad sifatida belgilangan [4].

Buxoro viloyati Oʻzbekiston turizm tizimida alohida oʻrin egallaydi. Buyuk Ipak yoʻli chorrahasida joylashgan Buxoro shahrining tarixi ikki ming yildan oshiq boʻlib, u Oʻrta Osiyodagi eng yaxshi saqlanib qolgan oʻrta asr shaharlardan biri sifatida eʼtirof etiladi [5]. YUNESKONing ikkinchi mezonini Buxoroning Oʻrta Osiyodagi shaharsozlik anʼanalariga koʻrsatgan chuqur taʼsirini tasdiqlasa, toʻrtinchi mezonini shaharning bugungi kungacha asosan saqlanib qolgan oʻrta asr shahar tuzilmasi bilan Oʻrta Osiyo shahrining eng yaxlit va nodir namunalaridan biri ekanini eʼtirof etadi [6]. 1993–yildan buyon YUNESKO Jahon merosi roʻyxatiga kiritilgan Buxoro tarixiy markazida 260 dan ortiq tarixiy-meʼmoriy obidalar mavjud boʻlib, ular har yili yuz minglab mahalliy va xorijiy sayyohlarni oʻziga jalb etmoqda [5]. Xalqaro turizm nuqtai nazaridan meros shahri sifatida Buxoro aylanma turizm modellarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, meros obyektlaridan oqilona foydalanish madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishni taʼminlashga xizmat qiladi [7].

Shu bilan birga, sayyohlik oqimining jadal surʼatlarda ortib borishi turizm infratuzilmasini yanada samarali va innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Tadqiqotchilar taʼkidlaganidek, sayyohlik faoliyatining faol rivojlanishi turizm resurslaridan oqilona va barqaror foydalanishni taʼminlash zaruratini kuchaytiradi [8]. Turistlar sonining ortishi bir tomondan iqtisodiy faollikni ragʻbatlantirsa, ikkinchi tomondan tarixiy-meʼmoriy obyektlarni asrash, mahalliy aholi uchun qulay muhit yaratish hamda sayyohlik tajribasi sifatini yanada yuksaltirish imkonini beradi. Shu sababli turistik sigʻim (Tourism Carrying Capacity — TCC), yaʼni obyektning oʻz barqarorligini saqlagan holda qancha turistni qabul qila olishini ilmiy asosda aniqlash jarayoni bugungi kunda meros turizmini samarali boshqarishning muhim vositalaridan biri sifatida tobora keng qoʻllanilmoqda [9; 10].

Mazkur tadqiqot Abdulazizxon madrasasi va Ulugʻbek madrasasi misolida fizik sigʻim (Physical Carrying Capacity — PCC) hamda haqiqiy sigʻim (Real Carrying Capacity — RCC) koʻrsatkichlarini dala tadqiqotlari asosida aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari ushbu obyektlarda sayyoh oqimini ilmiy asosda boshqarish, tarixiy merosni asrash va barqaror turizm rivojlanishini taʼminlash boʻyicha amaliy qarorlar qabul qilish uchun muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik sigʻim (Tourism Carrying Capacity — TCC) tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi dastlab ekologiya hamda tabiatni muhofaza qilish sohalari bilan bogʻliq boʻlgan boʻlsa, keyinchalik u turizm tadqiqotlarida mustaqil metodologik yoʻnalish sifatida shakllandi. Srivastavaning taʼkidlashicha, TCC oʻz mohiyatiga koʻra “maʼlum bir hududda sayyohlik faoliyatining salbiy oqibatlarini yuzaga keltirmasdan qabul qilinishi mumkin boʻlgan ziyoratchilarning maksimal soni”ni anglatadi [8]. Keyinchalik ushbu yondashuv ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini ham qamrab olgan holda yanada kengaytirildi [10].

Metodologik jihatdan bugungi kunda eng keng qoʻllaniladigan yondashuv Cifuentes tomonidan IUCN (Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi) uchun ishlab chiqilgan uch bosqichli model hisoblanadi [9]. Mazkur model fizik sigʻim (PCC), haqiqiy sigʻim (RCC) va samarali sigʻim (ECC) bosqichlarini oʻz ichiga oladi. Har bir keyingi bosqich oldingi bosqich natijalarini tuzatish koeffitsiyentlari asosida aniqlashga tayangan. Aylanish koeffitsiyenti tushunchasi metodologiyaga ilk bor Boullon tomonidan kiritilgan boʻlib, u “kunlik ochiq soatlar / oʻrtacha tashrif davomiyligi” formulasini taklif qilgan [14]. Ushbu formula hozirgi kunda ham TCC tadqiqotlarining asosiy hisoblash vositalaridan biri sifatida qoʻllanilmoqda [9; 13].

Xalqaro miqyosda TCC metodologiyasini madaniy meros obyektlarida qoʻllash boʻyicha tadqiqotlar soni soʻnggi oʻn yilliklarda sezilarli darajada ortdi. Magabli va Al-Shorman lordaniyadagi Petra YUNESKO meros saytida fizik sigʻimni hisoblash boʻyicha muhim tadqiqot olib bordilar [12]. Tadqiqot natijalariga koʻra, Petra uchun oylik sigʻim 16 200 ziyoratchini tashkil etgan boʻlsa-da, ayrim mavsumlarda ushbu koʻrsatkichning oshib ketishi



kuzatilgan [12]. Mazkur tadqiqot tarixiy obyektlarda turistlar oqimini mavsumiy jihatdan muvozanatlashtirish muhimligini ko'rsatdi.

Diniy va ziyorat turizmi obyektlari uchun maxsus TCC metodologiyasini Jangra va Kaushik (2017) Hindistonning Kurukshetra shahridagi Braham Sarovar saytida sinovdan o'tkazdilar [13]. Tadqiqotchilar IUCN formulasi asosida maydon, avtoturargoh, hojatxona, ichimlik suvi hamda yo'lak kabi ko'rsatkichlar bo'yicha alohida PCC hisob-kitoblarini amalga oshirib, saytning kunlik maksimal sig'imi 567 534 ziyoratchini tashkil etishini aniqladilar [13]. Tadqiqotning metodologik ahamiyati shundaki, unda funksional zonalarga qarab bir kishiga mo'ljallangan maydon me'yorlari tabaqalashtirilgan holda qo'llanilgan.

Erdogan Turkiyaning Amasya shahridagi ko'p funksiyali YUNESKO meros saytida Cifuentes modelini zamonaviy meros turizmi sharoitiga moslashtirib, PCC, RCC, ECC hamda ijtimoiy sig'im (SCC) ko'rsatkichlarini birgalikda hisoblagan [11]. Tadqiqot natijalari ayrim zonalarda sig'im me'yoringing oshib ketishi me'moriy obyektlarga ta'sir darajasini oshirishi va turistik tajriba sifatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqladi [11]. Bundan tashqari, Makhadmeh va hammualliflar Iordaniyadagi Jerash (Gerasa) arxeologik saytida GAT modellashtirish asosida sig'imni baholash metodologiyasini ishlab chiqdilar hamda turistlar oqimining tarixiy yodgorliklar xavfsizligiga ta'sirini tahlil qildilar [18].

Turistik sig'im muammosi faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydi. Butler tomonidan ishlab chiqilgan TALC (Tourism Area Life Cycle) modeli sayyohlik manzilining rivojlanish bosqichlari — kashfiyot, jalb etish, rivojlanish, konsolidatsiya, turg'unlik va yangilanish bosqichlarini izohlaydi hamda sig'im me'yoringing oshishi manzilning barqaror rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi [15]. Doxey esa "Bezovtalanish indeksi" (Irridex) modeli orqali mahalliy aholining turistlarga bo'lgan munosabatini o'rganib, sig'im me'yoringing oshishi ijtimoiy munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatishini asoslab berdi [17]. Shu bilan birga, YUNESKO/ICCROM/ICOMOS/IUCN tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon merosi kontekstida ta'sir baholash bo'yicha qo'llanma" YUNESKO obyektlarida sig'imni baholashning muhim huquqiy va metodologik asoslarini belgilab beradi [16].

O'zbekiston, xususan, Buxoro shahridagi tarixiy meros obyektlarida TCCni o'lchashga qaratilgan tadqiqotlar hali yetarli darajada shakllanmagan. Mavjud tadqiqotlar asosan meros turizmini rivojlantirish yoki GAT texnologiyalari asosida marshrutlarni optimallashtirish masalalariga qaratilgan. Kilichov va hammualliflar Buxoroda meros turizmini rivojlantirishda GAT texnologiyalaridan foydalanib, sayyohlik marshrutlarini optimallashtirish modelini taklif etdilar, biroq obyektlarning aniq sig'im ko'rsatkichlarini hisoblamadilar [7]. Khamidov va Khayrullaeva esa Buxoro viloyatida barqaror turizmini rivojlantirish masalalarini o'rganib, turistik infratuzilmani yanada takomillashtirish zarurligini ta'kidladilar [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Cifuentes metodologiyasi xalqaro miqyosda madaniy meros obyektlarida samarali qo'llanilayotgan bo'lsa-da [9; 11; 12; 13], Buxoro tarixiy markazidagi alohida obyektlar uchun dala tadqiqotlariga asoslangan miqdoriy sig'im ko'rsatkichlari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda bir-birini to'ldiruvchi beshta ilmiy metoddan foydalanildi. Kuzatuv metodi doirasida har bir obyekt hududida kamida 50 nafar ziyoratchi bevosita kuzatilib, ularning kirish va chiqish vaqtlari qayd etildi hamda o'rtacha tashrif davomiyligi aniqlandi. O'lchov metodi asosida obyekt maydonlari GPS asboblari yordamida joyida o'lchanib, natijalar kadastr hujjatlari bilan taqqoslandi. Hujjatlar tahlili metodi orqali kadastr ma'lumotlari, obyekt ma'muriyatidan olingan texnik hujjatlar hamda O'zgidrometning ko'p yillik iqlim statistikasi o'rganildi. Miqdoriy tahlil metodi yordamida yig'ilgan dala ma'lumotlari Cifuentes formulalari asosida matematik hisob-kitoblar orqali qayta ishlanib, PCC va RCC ko'rsatkichlari bosqichma-bosqich aniqlandi. Yakuniy bosqichda qiyosiy tahlil metodi qo'llanilib, olingan natijalar xalqaro meros obyektlarida o'tkazilgan o'xshash tadqiqotlar — Erdoĝan, Magabli va Al-Shorman hamda Jangra va Kaushik tadqiqotlari natijalari bilan solishtirildi [11; 12; 13].

Ma'lumotlar ikki yo'nalishda yig'ildi:

1. GPS o'lchov asboblari va kadastr hujjatlari asosida obyekt maydonlari aniqlandi;
2. har bir obyektida kamida 50 nafar ziyoratchi kuzatilib, kirish va chiqish vaqtlari qayd etildi hamda o'rtacha tashrif davomiyligi hisoblab chiqildi.

Fizik sig'im (PCC) formulasi

Fizik sig'im quyidagi formula asosida hisoblandi [9; 14]:

$$PCC = S \times U$$

Bu yerda:

$$S = \frac{E}{a_{och}} + \frac{G}{a_{yop}} + \frac{H}{a_{tor}} + \frac{I}{a_{min}} - \frac{K}{a_{och}} - \frac{L}{a_{och}}$$



$$U = \frac{\text{Ochiq soatlar}}{\text{Tashrif vaqti (daq)/60}}$$

Belgilar izohi:

Belgi	Ma'no	Bir kishiga maydon (a)
E	Ochiq maydon / hovli	3,0 m ²
G	Yopiq / ichki zal	2,0 m ²
H	Tor yo'lak (< 2 m)	1,2 m ²
I	Minora / tor ko'tarilish	1,1 m ²
K	Hovuz / suv — ayiriladi	3,0 m ²
L	Bog' / gulzor — ayiriladi	3,0 m ²

a qiymatlari Jangra va Kaushik hamda Cifuentes tavsiyalariga asoslangan [9; 13].

Haqiqiy sig'im (RCC) formulasi

Haqiqiy sig'im PCCga iqlim va funksional zonalar bo'yicha tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash orqali hisoblandi [9; 11]:

$$RCC = PCC \times \left(1 - \frac{M + N + O}{\Sigma A}\right) \times \left(1 - \frac{d_{\text{issiq}}}{365}\right) \times \left(1 - \frac{d_{\text{sovuq}}}{365}\right)$$

Bu yerda:

M — savdo rastalari maydoni;

N — muzey eksponatlari joylashgan maydon;

O — xizmat va texnik zonalar maydoni;

d_{issiq} — yil davomida 35°C dan yuqori bo'lgan kunlar soni (82 kun);

d_{sovuq} — yil davomida 0°C dan past bo'lgan kunlar soni (30 kun).

Mazkur ma'lumotlar O'zgidromet statistikasi asosida olindi [9].

Natijada umumiy iqlim koeffitsiyenti 71,16 % deb qabul qilindi, ya'ni PCCning 28,84 % qismi iqlim omillari ta'siri sababli kamaytirildi.

Yillik va mavsumiy sig'im

Kunlik ko'rsatkichlar asosida yillik va mavsumiy sig'im quyidagi formulalar yordamida aniqlandi:

$$PCC_{\text{yillik}} = PCC \times 365$$

$$RCC_{\text{yillik}} = RCC \times 365$$

$$PCC_{\text{mavsum}} = PCC \times 253$$

$$RCC_{\text{mavsum}} = RCC \times 253$$

Bu yerda 253 kun yilning haddan tashqari issiq va sovuq davrlaridan holi bo'lgan faol turistik mavsum kunlarini anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Abdulazizxon madrasasi

Fizik sig'im (PCC) natijalari (1-jadval)

1-jadval. Abdulazizxon madrasasi — maydon tarkibi

Zona turi	Maydon (m ²)	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	900	qo'shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	1339	qo'shiladi
Savdo rastasi (M)	50	RCC tuzatishida hisobga olinadi
Muzey eksponati (N)	18	RCC tuzatishida hisobga olinadi
Xizmat-texnik zona (O)	288	RCC tuzatishida hisobga olinadi



1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Abdulazizxon madrasasining umumiy hisoblash maydonida yopiq ichki zal (1339 m²) eng katta ulushni tashkil etadi. Ochiq maydon, ya'ni hovli maydoni 900 m² ga teng. Savdo rastasi, muzey eksponatlari va xizmat-texnik zonalar (jami 356 m²) esa fizik sig'imga (PCC) bevosita ta'sir ko'rsatmagan holda, haqiqiy sig'imni (RCC) aniqlashda tuzatish koeffitsiyenti sifatida hisobga olingan (2-jadval).

2-jadval. Abdulazizxon madrasasi — sig'im natijalari

Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	969,5
Ochiq vaqt / tashrif vaqti	9 soat / 30 daqiqa
Aylanish koeffitsiyenti	18
Iqlim koeffitsiyenti	71,16 %
Fizik sig'im — PCC	17 451 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im — RCC	10 138 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	6 369 615 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	3 700 370 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	4 415 103 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	2 564 914 ziyoratchi/mavsum

2-jadval natijalariga ko'ra, Abdulazizxon madrasasi bir kunda maksimal 17 451 nafar ziyoratchini qabul qilish imkoniyatiga ega. Biroq iqlim omillari (yiliga 82 kun yuqori haroratli va 30 kun sovuq davr) hamda funksional zonalar bo'yicha tuzatish koeffitsiyentlari hisobga olinganda, haqiqiy sig'im 10 138 nafar ziyoratchi/kunni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich fizik sig'imning 58,1 %iga teng bo'lib, obyektning samarali faoliyat yuritish davri asosan yilning 253 kunlik faol turistik mavsumiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Ulug'bek madrasasi
Fizik sig'im (PCC) (3-jadval)

3-jadval. Ulug'bek madrasasi — maydon tarkibi

Zona turi	Maydon (m ²)	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	531	qo'shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	798	qo'shiladi
Savdo rastasi (M)	49	RCC tuzatishida hisobga olinadi
Muzey eksponati (N)	40	RCC tuzatishida hisobga olinadi
Xizmat-texnik zona (O)	20	RCC tuzatishida hisobga olinadi

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Ulug'bek madrasasining ochiq maydoni 531 m² ni, yopiq ichki zali esa 798 m² ni tashkil etadi. Savdo rastalari, muzey eksponatlari va xizmat-texnik zonalar (jami 109 m²) fizik sig'imga (PCC) bevosita ta'sir ko'rsatmagan holda, haqiqiy sig'imni (RCC) aniqlashda tuzatish koeffitsiyenti sifatida hisobga olingan (4-jadval).



4-jadval. Ulug'bek madrasasi — sig'im natijalari

Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	576
Ochiq vaqt / tashrif vaqti	9 soat / 20 daqiqa
Aylanish koeffitsiyenti	27
Iqlim koeffitsiyenti	71,16 %
Fizik sig'im — PCC	15 552 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im — RCC	10 020 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	5 676 480 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	3 657 300 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	3 934 656 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	2 535 060 ziyoratchi/mavsum

4-jadval natijalari Ulug'bek madrasasining turistlarni qabul qilish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Xususan, kunlik fizik sig'im (PCC) 15 552 nafar ziyoratchini tashkil etsa, yillik PCC 5 676 480 nafarni tashkil etadi. Haqiqiy sig'im (RCC) esa kuniga 10 020 nafar, yillik hisobda 3 657 300 nafar ziyoratchiga teng bo'ldi. Mavsumiy PCC 3 934 656 nafarni, mavsumiy RCC esa 2 535 060 nafar ziyoratchini tashkil etdi.

Qiyosiy tahlil va muhokama (5-jadval)

5-jadval. Ikki obyektning yakuniy qiyosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Abdulazizxon	Ulug'bek
Foydalanish maydoni (m ²)	2 239	1 329
PCC (ziyoratchi/kun)	17 451	15 552
RCC (ziyoratchi/kun)	10 138	10 020
RCC/PCC nisbati (%)	58,1	64,4
Yillik RCC	3 700 370	3 657 300
Mavsumiy RCC	2 564 914	2 535 060

5-jadvalning qiyosiy tahlili ikki obyekt o'rtasida PCC ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, Abdulazizxon madrasasining kunlik potensial sig'imi 17 451 nafarni tashkil etgan bo'lsa, Ulug'bek madrasasida ushbu ko'rsatkich 15 552 nafarni tashkil etdi. Mazkur farq asosan foydalanish maydonlaridagi tafovut bilan izohlanadi. Xususan, Abdulazizxon madrasasining foydalanish maydoni 2 239 m² bo'lib, Ulug'bek madrasasining 1 329 m² maydoniga nisbatan kattaroqdir.

Shu bilan birga, RCC ko'rsatkichlari bo'yicha obyektlar o'rtasida deyarli teng natijalar kuzatildi (10 138 va 10 020 ziyoratchi/kun). Bu holat real boshqaruv sharoitida ta'sir etuvchi omillar ta'siri natijasida sig'im ko'rsatkichlari bir-biriga yaqinlashganini anglatadi. RCC/PCC nisbati bo'yicha Ulug'bek madrasasi 64,4 % natija bilan Abdulazizxon madrasasining 58,1 % ko'rsatkichiga nisbatan yuqoriroq samaradorlikni namoyon etdi. Mazkur farq obyektlarning funksional tuzilmasi va ichki foydalanish zonalaridagi tafovutlar bilan izohlanadi. Abdulazizxon madrasasida xizmat-texnik zonalar hamda savdo maydonlari nisbatan kattaroq bo'lgani sababli, haqiqiy sig'imni kamaytiruvchi tuzatish koeffitsiyentlari ko'proq qo'llanilgan. Ulug'bek madrasasida esa bunday cheklovchi zonalar nisbatan kam bo'lgani uchun RCC/PCC nisbati yuqoriroq shakllangan.

Yillik RCC ko'rsatkichlari ham bir-biriga yaqin bo'lib, Abdulazizxon madrasasida 3 700 370 nafar, Ulug'bek madrasasida esa 3 657 300 nafarni tashkil etdi. Mavsumiy RCC ko'rsatkichlari ham mos ravishda 2 564 914 va 2 535 060 nafar bo'lib, obyektlarning turizm oqimini qabul qilish salohiyati o'xshash darajada ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirilganda, Erdogan Amasya meros obyektida RCCning PCCga nisbatan 40–60 % oraliqidagi ko'rsatkichini me'yoriy daraja sifatida baholagan [11]. Mazkur tadqiqotda esa ushbu nisbat Abdulazizxon va Ulug'bek madrasalarida mos ravishda 58,1–64,4 % ni tashkil etdi. Ushbu natijalar xalqaro tajriba doirasida ijobiy va barqaror ko'rsatkich sifatida baholanishi mumkin. Petra obyektida Magablih va Al-Shorman tomonidan aniqlangan sig'im me'yoridan ortiq yuklanish holatlaridan farqli ravishda [12], tadqiqot obyektlari hozirgi bosqichda barqaror faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, obyekt hududlarida tijorat faoliyatining kengayish ehtimoli mavjudligi kelgusida haqiqiy sig'im ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Butlarning TALC modelida ta'kidlanganidek, tijorat faoliyatining



me'moriy meros hududlarida ortib borishi boshqaruv yuklamasining kuchayishiga olib keluvchi omillardan biri hisoblanadi [13]. Amaliy jihatdan mazkur natijalar meros obyektlarini boshqarish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Abdulazizxon madrasasi uchun kunlik 10 138 nafar, Ulug'bek madrasasi uchun esa 10 020 nafar ziyoratchi ilmiy asoslangan boshqaruv limiti sifatida tavsiya etilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida Abdulazizxon madrasasi hamda Ulug'bek madrasasining turistik sig'imi Cifuentesning uch bosqichli modeli asosida baholandi. Olingan natijalarga ko'ra, Abdulazizxon madrasasining kunlik fizik sig'imi (PCC) 17 451 nafarni, haqiqiy sig'imi (RCC) esa 10 138 nafarni tashkil etdi hamda RCC/PCC nisbati 58,1 % darajasida shakllandi. Ulug'bek madrasasida esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 15 552 va 10 020 nafarni tashkil etib, nisbat 64,4 % ga teng bo'ldi.

Mazkur natijalar har ikki obyekt hozirgi bosqichda o'z sig'im chegarasidan oshmagan holda faoliyat yuritayotganini va ularning turizm oqimini qabul qilish salohiyati barqaror darajada saqlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, obyektlar o'rtasida PCC ko'rsatkichlari bo'yicha muayyan farq mavjud bo'lsa-da, RCC darajasida ushbu tafovut sezilarli darajada qisqaradi. Bu holat real boshqaruv sharoitida cheklovchi omillarning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Abdulazizxon madrasasida xizmat-texnik va savdo zonalarining ulushi kattaroq bo'lgani sababli haqiqiy sig'imga ta'sir qiluvchi omillar kuchliroq namoyon bo'ladi. Ulug'bek madrasasida esa bunday zonalar nisbatan kam bo'lib, bu RCC/PCC nisbatining yuqoriroq shakllanishiga imkon yaratgan.

Xalqaro tajriba bilan solishtirilganda, tadqiqot natijalari qoniqarli va barqaror diapazonda ekanligi aniqlandi. Xususan, Tourism Area Life Cycle (TALC) nazariyasiga ko'ra, tarixiy hududlarda tijorat faoliyatining keng ko'lamda rivojlanishi kelgusida sig'im ko'rsatkichlariga hamda obyektlarning jozibadorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, mavjud barqarorlikni saqlab qolish va turizm oqimini muvozanatli boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, Abdulazizxon madrasasi uchun kunlik 10 138 nafar, Ulug'bek madrasasi uchun esa 10 020 nafar ziyoratchi sonini ilmiy asoslangan boshqaruv limiti sifatida belgilash hamda ushbu ko'rsatkichlarni tashriflarni tartibga solish tizimiga (chipta yoki kvotalash mexanizmi) bosqichma-bosqich joriy etish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, Abdulazizxon madrasasida savdo rastalari va xizmat-texnik zonalarini optimallashtirish, ularni imkon qadar obyekt tashqarisidagi yoki kamroq yuklama tushadigan hududlarga joylashtirish orqali foydali foydalanish maydonini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, kelgusidagi tadqiqotlarda faqat fizik va haqiqiy sig'im bilan cheklanib qolmasdan, infratuzilma, xizmat sifati hamda boshqaruv resurslarini ham inobatga oluvchi samarali sig'im (ECC) ko'rsatkichlarini aniqlash tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, mazkur metodologiyani Buxoro tarixiy markazidagi boshqa me'moriy meros obyektlariga ham tatbiq etish orqali hudud miqyosida yagona barqaror turizm boshqaruvi tizimini shakllantirish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [World Travel & Tourism Council](#). *Travel & Tourism Economic Impact Research (EIR)* [Elektron resurs].
2. UN Tourism. *World Tourism Barometer Data* [Elektron resurs].
3. [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi](#). *2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan* [Elektron resurs].
4. [Lex.uz](#). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni, 2026-yil 16-fevral. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
5. [YUNESKO World Heritage Centre](#). *Historic Centre of Bukhara* [Elektron resurs].
6. Khamidov O., Khayrullaeva N. Sustainable Tourism Development in the Bukhara Region: A Development Research Model at Heritage Resources / O. Khamidov, N. Khayrullaeva // *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education*. — 2021. — Vol. 1, No. 1. — [Maqola havolasi](#).
7. Kilichov M., Olsavsky F., Baiburiev R., Khayrullaeva N., David L.D. Optimizing Sustainable Tourism Routes through GIS to Enhance Tourist Length of Stay in Bukhara // *Journal of Cultural Analysis and Social Change*. — 2026. — Vol. 11, № 1. — P. 1771–1787. — DOI: 10.64753/jcasc.v11i1.4187.
8. Srivastava N. Measurement of Carrying Capacity of Tourist Destinations: A Case Analysis / N. Srivastava // *International Journal of Tourism and Travel*. — 2017. — Vol. 10, No. 1. — P. 38–46.
9. Cifuentes Arias M. *Determinación de capacidad de carga turística en áreas protegidas* / M. Cifuentes Arias. — Turrialba (Costa Rica): CATIE, 1992. — 28 p.



10. [UNWTO](#). *Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations — A Guidebook*. — Madrid: UNWTO, 2004. — 516 p.
11. Erdoğan A. Carrying Capacity Assessments for Sustainable Tourism in a Heritage Site / A. Erdoğan // *Advances in Hospitality and Tourism Research (AHTR)*. — 2025. — Vol. 13, No. 3. — P. 237–274. — DOI: 10.30519/ahtr.1483060.
12. Magabli K., Al-Shorman A. The Physical Carrying Capacity at the Cultural Heritage Site of Petra / K. Magabli, A. Al-Shorman // *Tourism Analysis*. — 2009. — Vol. 13, No. 5–6. — P. 511–515. — DOI: 10.3727/108354208788160414.
13. Jangra R., Kaushik S.P. Assessment of Physical Carrying Capacity for Managing Sustainability at Religious Tourist Destinations / R. Jangra, S.P. Kaushik // *International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage*. — 2017. — Vol. 5, Iss. 1, Article 5. — [Maqola havolasi](#).
14. Boullon R. Framework Guidelines for Assessing Carrying Capacity / R. Boullon // *FAO Corporate Document Repository*. — 1985. — [FAO havolasi](#).
15. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources / R.W. Butler // *Canadian Geographer*. — 1980. — Vol. 24, No. 1. — P. 5–12.
16. YUNESKO. *Guidance and Toolkit for Impact Assessments in a World Heritage Context* / YUNESKO, ICCROM, ICOMOS, IUCN. — Paris: YUNESKO, 2022. — 148 p.
17. Doxey G.V. A Causation Theory of Visitor-Resident Irritants: Methodology and Research Inferences / G.V. Doxey // *Proceedings of the Travel Research Association 6th Annual Conference*. — San Diego, 1975. — P. 195–198.
18. Makhadmeh A., Al-Badarneh M., Rawashdeh A., Al-Shorman A. Evaluating the Carrying Capacity at the Archaeological Site of Jerash (Gerasa) Using Mathematical GIS Modeling / A. Makhadmeh [et al.] // *Egyptian Journal of Remote Sensing and Space Sciences*. — 2020. — Vol. 23, No. 2. — P. 159–165. — DOI: 10.1016/j.ejrs.2018.09.002.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>